



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2024 yil 24-dekabr

№ 1973

O‘zbekiston Respublikasi ayrim sudlariga sudyalarni tayinlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunning 69-72-moddalari va “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi Qonunning 7, 17-moddalariga muvofiq:

Raximov Bobir Istamovich – sudyalik vakolati muddati davriga Toshkent shahar jinoyat ishlari bo‘yicha Uchtepa tuman sudining sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Toshkent shahar jinoyat ishlari bo‘yicha Shayxontohur tuman sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin.

Eshmirzayev Zoxidjon Muxammadiyevich – sudyalik vakolati muddati davriga Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanlararo iqtisodiy sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Samarqand viloyat sudining iqtisodiy ishlar bo‘yicha sudyasi lavozimidan ozod qilinsin.

Usmanov Alisher Akramovich – sudyalik vakolati muddati davriga Qashqadaryo viloyati Kasbi tumanlararo iqtisodiy sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Qashqadaryo viloyati Koson tumanlararo iqtisodiy sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin.

Shermatov Akmal Po‘latjon o‘g‘li – sudyalik vakolati muddati davriga Toshkent shahar Toshkent tumanlararo ma‘muriy sudi raisining o‘rinbosari lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Andijon viloyati Andijon tumanlararo ma‘muriy sudining raisi lavozimidan ozod qilinsin.

Qaxorov Olimjon Ibragimovich – sudyalik vakolati muddati davrining besh yil muddatiga Andijon viloyati Andijon tumanlararo ma‘muriy sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Andijon viloyat ma‘muriy sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin.

Omonov Umidjon Olimjonovich – sudyalik vakolati muddati davriga Andijon viloyat ma‘muriy sudining sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Farg‘ona viloyati Farg‘ona tumanlararo ma‘muriy sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin.

Suvanov Sardor Baxadirovich – sudyalik vakolati muddati davriga Sirdaryo viloyat ma‘muriy sudining sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Toshkent viloyat ma‘muriy sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin.

Ushbu qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov